



Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 856,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **5,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **251,6** mlrd. so'mni (**33,9 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 604,6** mlrd. so'mni (**2,1 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **321,3** mlrd. so'mni (**2,9 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 856,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **95,0** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida Urganch shahri va Urganch tumanida kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **86,4** % va yirik korxonalar hissasiga **13,6** % to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **32,4** % ulush bilan **601,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Xiva tumanida **2,2** % ulush bilan **40,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-mart



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2020- yil yanvar-mart
		2021- yil yanvar-mart

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, **1 604,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **2,1** % ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86,4** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,8 %), Bog'ot (98,9 %), Gurlan (98,3 %) va Yangiariq (97,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2021- yil yanvar-mart

2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida quyidagi hududlarda kamayish sur'atlari kuzatilib, jumladan, Urganch shahrida (83,9 %), Urganch tumani (98,7 %) ni tashkil qildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 856 162,5	95,0	251 582,2	66,1	1 604 580,3	102,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	601 134,0	83,9	198 974,8	63,2	402 159,3	100,1
Xiva	74 479,2	100,1	5 576,4	81,4	68 902,7	102,0
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	103 401,9	100,1	1 116,7	14,1	102 285,1	107,3
Gurlan	141 488,3	101,1	2 367,2	105,5	139 121,2	101,1
Qo'shko'pir	84 319,7	105,8	5 546,4	4,2 m.	78 773,3	100,5
Urganch	200 548,9	98,7	8 792,9	54,6	191 756,0	102,5
Hazorasp	190 401,8	104,3	12 404,8	2,4 m.	177 997,0	100,3
Tuproqqal'a	47 320,5	101,6	87,7	-	47 232,8	101,4
Xonqa	124 365,0	100,2	5 890,2	32,6	118 474,8	111,7
Xiva	40 125,0	103,3	1 221,9	3,5 m.	38 903,1	101,0
Shovot	131 256,0	100,4	4 216,9	69,1	127 039,1	101,9
Yangiariq	74 783,6	101,4	2 125,3	118,0	72 658,3	101,0
Yangibozor	42 538,7	108,4	3 261,1	15,7 m.	39 277,6	100,6



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **33,9 %** ga kamaydi va **251,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 604,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **2,1 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **86,4 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,8 %), Bog'ot (98,9 %) va Gurlan (98,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (33,1 %), Yangibozor tumani (7,7 %), Xiva shahri (7,5 %) va Qo'shko'pir tumani (6,6 %) da kuzatildi.



2021- yil yanvar-mart oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **978,9** ming so'm (2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **6,3** % ga kamaydi) ni tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Yangibozor (107,0%), Qo'shko'pir (104,5 %), Hazorasp (102,8 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch shahar (83,3 %), Urganch (96,8 %) va Bog'ot (98,5 %) tumanlarida eng quyi ko'rsatkichlar kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (4142,9 ming so'm), Urganch (994,3 ming so'm) va Hazorasp (968,0 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**




**XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2021- yil yanvar-mart

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	978,9	93,7
shaharlar:		
Urganch	4142,9	83,3
Xiva	794,9	98,6
tumanlar:		
Bog'ot	619,9	98,5
Gurlan	945,1	99,9
Qo'shko'pir	484,9	104,5
Urganch	994,3	96,8
Hazorasp	968,0	102,8
Tuproqqal'a	860,4	100,1
Xonqa	659,4	98,7
Xiva	272,0	101,6
Shovot	763,6	99,0
Yangiariq	637,5	100,0
Yangibozor	482,3	107,0

Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




2021- yilning yanvar-mart oyilarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **321,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **2,9** % ga o'sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **152,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 104,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **168,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 102,0 %) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



2021- yilning yanvar-mart oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 152,8 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 168,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	321,3	102,9	152,8	104,0	168,5	102,0
shaharlar:						
Urganch	60,6	100,2	41,4	179,1	19,2	51,4
Xiva	5,1	103,2	5,1	103,2	-	-
tumanlar:						
Bog'ot	48,3	106,8	6,5	39,8	41,8	144,5
Gurlan	31,7	102,0	7,9	48,4	23,8	162,0
Qo'shko'pir	22,2	100,3	14,9	104,4	7,2	92,7
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	37,8	100,3	20,9	110,0	17,0	90,6
Tuproqqal'a	9,5	100,2	8,8	122,6	0,8	33,2
Xonqa	30,8	115,5	22,1	110,4	8,7	130,9
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	62,6	101,3	19,6	109,8	43,0	97,9
Yangiariq	8,2	100,4	3,9	81,3	4,3	128,0
Yangibozor	4,6	100,1	1,8	55,9	2,8	2,0 m.



1,6
mlrd. so'm

Tuzlamalar



68,2
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



4,2
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

21,3
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



4,3
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

13,0
mlrd. so'm



Tuxum

20,5
mlrd. so'm



Don mahsulotlari
(mosh, loviya, no'xat, guruch
va boshqalar)

5,8
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) **11** ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **152,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**68,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

1,2
mlrd. so'm



Ziravorlar

11,3
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

1,3
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarda joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **168,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **156,3** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **10,9** mlrd. so'mni, parrandalar **1,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2021- yil yanvar-mart


2021- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **29,4** mlrd. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **7,3 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **88,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	29 433,1	107,3	3 357,3	369,8	26 075,8	98,3
shaharlar:						
Urganch	13 520,6	103,3	1304,3	187,1	12 216,4	98,5
Xiva	1 533,2	98,9	-	-	1 533,2	98,9
tumanlar:						
Bog'ot	943,8	99,4	-	-	943,8	99,4
Gurlan	723,6	98,4	-	-	723,6	98,4
Qo'shko'pir	464,5	100,0	-	-	464,5	100,0
Urganch	5 061,9	97,7	211,0	100,0	4 850,8	97,6
Hazorasp	1 345,6	98,0	-	-	1 345,6	98,0
Tuproqqal'a	519,6	97,2	-	-	519,6	97,2
Xonqa	898,9	96,8	-	-	898,9	96,8
Xiva	778,8	98,4	-	-	778,8	98,4
Shovot	2 824,0	2,8 m.	1842,0	-	982,0	98,3
Yangiariq	308,5	98,2	-	-	308,5	98,2
Yangibozor	510,1	100,1	-	-	510,1	100,1

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2021- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **494,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **0,7 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **95,0** mlrd. so'mni (**6,6 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **399,9** mlrd. so'mni (**2,7 %** ga ko'payish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxona

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

494,9 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

95,0 mlrd. so'm,
19,2 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

399,9 mlrd. so'm,
80,8 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2021- yil yanvar-mart

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Yangibozor tumani (33,3 m.), Gurlan tumani (19,2 m.), Yangiariq tumani (12,9 m.) va Hazorasp tumani (10,3 m.) da kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Xiva (2,0 m.) tumanida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	494 931,27	100,7	95 025,5	93,4	399 905,8	102,7
shaharlar:						
Urganch	239 151,0	99,4	57 525,0	136,6	181 626,0	91,5
Xiva	18 555,1	96,0	189,6	88,4	18 365,5	96,1
tumanlar:						
Bog'ot	9 144,1	88,7	2,0	60,0	9 142,1	88,7
Gurlan	10 207,5	101,4	932,7	19,2 m.	9 274,8	92,6
Qo'shko'pir	3 810,4	93,8	3,5	24,4	3 806,8	94,1
Urganch	93 175,9	80,1	34 020,8	58,6	59 155,1	101,6
Hazorasp	4 800,1	94,8	138,9	10,3 m.	4 661,2	92,3
Tuproqqal'a	4 134,0	94,9	6,6	-	4 127,4	94,8
Xonqa	19 694,7	90,4	1 771,7	140,9	17 923,0	87,3
Xiva	68 070,7	2,0 m.	4,9	10,5	68 065,8	2,0 m.
Shovot	8 125,4	90,0	6,4	133,4	8 119,0	90,0
Yangiariq	5 992,6	92,4	77,2	12,9 m.	5 915,4	91,3
Yangibozor	10 069,7	94,3	346,3	33,3 m.	9 723,4	91,2

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, **399,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **2,7** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **80,8** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Bog'ot, Shovot (100,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Urganch tumani (63,5 %), Urganch shahri (75,9 %) tumaniga to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel.: (62) 227-78-85